

**BUXORO HUNARMANDCHILIK AN’ANALARI VA ULARNING
ETNOGRAFIK AHAMIYATI**

Ergasheva Nafosat Shamsiddin qizi

Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti

Ilmiy rahbar: Yarashova Mohlaroyim Shuhratovna

Tel:888621888

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot Buxoro – Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri, bundan tashqari Buyuk Ipak Yo’lidagi eng yirik va mashhur sharlardan biridir. Shaharning ming yillik tarixi, madaniy-ma’rifiy va ma’naviy-diniy qadriyatlarining rivojiga qo’shgan hissasi beqiyos ekanligini ko’rsatadi. Bu shaharning har bir qismida – boy tarixga ega minoralar, qadamjolar va obidalarida olis o’tmishimizning izlari mavjud. Bugungi kungacha yetib kelgan me’morchilik, kandakorlik, zargarlik, kulolchilik, gilamdo’zlik, kashtachilik, yog’och va ganch o’ymakorligi sohalarida Buxoro hunarmandlari o’z iste’dodlarini ko’rsatib kelishmoqda. Ushbu tadqiqotda Buxoroyi Sharifning ko’plab hunarmandchilik turlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Buxoro hunarmandchilik tarixi, me’morchilik, yog’och va ganch o’ymakorligi, kashtachilik, hunarmandchilikka qaratilayotgan e’tibor.

Mavzuning dolzarbligi: Buxoro vohasi tarixdan ma’lumki, qadimdan hunarmandchilik tarmoqlari keng tarqalgan hudud hisoblanadi. Hunarmandchilikda katta yutuqlarga erishgan voha vakillari hanuzgacha ushbu sohalarini rivojlan-tirishda davom etmoqdalar.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning ta’kidlashlaricha hunarmandchilik xalqimiz kundalik hayotidan tobora mustahkam o’rin egallamoqda. Birgina 2018- yilga qaraydigan bo’lsak mamlakatimizda sohaga oid yuzdan ortiq festival va yarmarkalar va savdo ko’rgazmalari tashkil qilinganligi yurtimizda hunarmandchilik sohasiga qaratilayotgan e’tiborni ko’rsatadi. Buxoroda har yili o’tkaziladigan “Ipak va ziravorlar” festivali ham hunarmandchiligimizni dunyoga ko’rsatishda xizmat qilmoqda. Prezidentimizning 2021-yil 30-dekabr kuni “Hunarmandchilik faoliyatini qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risidagi” PQ-77-sonli qarori qabul qilindi. Buxoro hunarmand uyushmalariga ega bo’lgan. Uning tashkil topishi mahsulot ishlab chiqarish ustidan nazorat o’rnatishga, mahsulot ishlab chiqarish huquqini saqlash va raqobatbardoshlikka intilish bilan bog’liq bo’lgan. Buxoro hunarmandchilikning barcha sohalarida bunday uyushmalar mavjud bo’lgan va ularni rais yo-ki oqsoqol boshqargan.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Buxoro milliy hunarmandchilik an’analarini mahalliy aholi vakillariga yetkazish, hunarmandchilikni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratib berish, hunarmandchilik markazlariga e’tibor berish, ustoz – shogird munosabatlarini rivojlantirish orqali hunarmandchilikni avloddan-avlodga o’tib kelishi va yoshlarning tajribasini oshirishga ko’maklashish, va eng asosiysi ko’rik tanlov va

20-Yanvar, 2026-yil

festivallarni yuqori saviyada o'tkazib turistlarga milliy hunarmandchiligimiz mahsulotlarini namoyish qilish, Buxoro hunarmandchilik an'alarini, tarixini yanada chuqurroq o'rganish, shu sohada izlanishlar olib borish va hunarmandchilik tarixiga oid malumotlarni qidirib, topib uni yoshlarga yetqazishdan iboratdir.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash, ularni sifatini yanada oshirishda, mahsulotlarni jahon bozorlariga olib chiqishda, shuningdek hunarmand ustalarni yetkazib berishda Buxoro hududi muhim ahamiyat kasb etadi. Buxoro hunarmandchiligi tarixi o'ziga xosligi bilan boshqa hunarmandchilik markazlaridan ajralib turadi. Tarixga nazar solsak Buxoro mahsulotlarining sifati, ko'rinishi barchani o'ziga jalb qilganligini ko'ramiz. Buxoro gilamlari tarmog'I eng talab katta bo'lgan soha bo'lgan. Bundan tashqari to'quvchilik, zargarlik, kandakorlik, zardo'zlik kabi sohalar ham yetakchi bo'lgan.

Ilmiy yangiligi: Buxoro vohasiga xos bo'lgan milliy hunarmandchilik turlari va an'analari faoliyati o'rganildi. Xususan Buxoro zardo'zligi juda qadimdan rivojlanib kelayotgan hunarmandchilikning bir turi hisoblanadi. Tarixiy manbalardan ma'lumki, I-II asrlardayoq Buxoroda zarbof kiyimlar keng tarqalgan. Narshaxiyning yozishicha, Buxorxudotlar malikasi Qabaj Xotun zardo'zi etigining bir poyi arablar qo'lga tushganda etik VII asrda ikki yuz ming dirhamga baholangan. Markaziy Osiyo hududida eng qadimgi zargarlik buyumlari Buxoro va Xorazmdan topilgan bo'lib, ular miloddan avvalgi I mingyillik o'rtalariga mansub hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari: Buxoro vohasida turli xil sohalar mavjud bo'lgan. Hunarmandchilik buyumlarining sifati va ko'rinishi asrlar davomida ko'pchilikka qiziq bo'lgan. Kashtachilik – Buxoro amaliy bezak san'ati turlari orasida o'zining qadimiy an'alariga ega bo'lgan san'at turi hisoblanadi. Afsuski, kashtachilik namunalari eng qadimiylari saqlanib qolinmagan. Ispan elchisi Klavixio Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini o'zining “Kundalik” asarida yozib qoldirgan. Buxoro milliy kashtachilik maktablari va san'atining o'ziga xos tabiiy bo'yoqlardan foydalanish texnologiyasi va ipak matolarga qadimiy naqshlarning nusxalarini tikilayotgani barchaning diqqat-e'tiborini o'ziga qaratmoqda. Buxoro viloyatining Shofirkon, G'ijduvon, Vobkent va Qorako'l tumanlarida kashtachilik maktablari faoliyat ko'rsatmoqda. Buxoro milliy kashtachiligida Shofirkon kashtachilik maktablari alohida o'rin egallaydi. Shofirkon kashtachilik maktabi yetakchi ustalaridan biri Zuhro Obloberdiyeva. Yetuk namoyondalari esa Iroda Mahmudova, Axmad Arabov, Zaynab Murodova, Baxodir Gulov kabilar kashtachilik san'atida o'zlarining beqiyos xizmatlari bilan tanilgan.

Xulosa: Buxoro vohasida hunarmandchilik an'alarini davom ettirish orqali kelajak avlodga milliy va tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan me'rosni yetkazish, hunarmandchilik mahsulotlarini jahon ko'rgazmalarida ishtirokini amalga oshirish va milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirish. Buxoro shahri qadimdan hunarmandchilik va savdo markazlaridan biri bo'lib, bu hududda kulolchilik, zargarlik, zardo'zlik, kashtachilik, yog'och o'ymakorligi kabi hunarmandchilik turlari keng tarqalgan. Hunarmandchilik buyumlari xalqning kundalik turmushi, ijtimoiy munosabatlari, diniy etiqodlari hamda

20-Yanvar, 2026-yil

estetik qarashlarini aks ettiruvchi muhim etnografik manba hisoblanadi. Buxoro hunarmandchilik an’analari ustoz-shogird tizimi asosida avloddan-avlodga o’tib kelgan bo’lib , bu holat milliy madaniyatning uzluksizligini ta’minlagan. Mazkur an’analarni o’rganish xalqning tarixiy xotirasi , madaniy merosi va etnik o’ziga xosligini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi . Bugungi kunda Buxoro hunarmandchiligi milliy madaniy meros sifatida saqlanib , zamonaviy etnografik tadqiqotlar va madaniy turizm rivoji-ga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 30-dekabr kuni “Hunarmandchilik faoliyatini qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida” PQ-77-sonli qarori.
2. Qilichev.R Buxoro shahrida hunarmandchilik – Toshkent 1996
3. Raxmova M , Hamroyev A , Buxoro hunarmandchiligi durdonalari – Toshkent 2017
4. Рахимова, Н., & Янгибоева, Ж. (2025). ВЛИЯНИЕ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОВ НА ОБОГАЩЕНИЕ ЛЕКСИЧЕСКОГО ЗАПАСА И РАЗВИТИЕ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ. *Modern Science and Research*, 4(1), 416-427.
5. Рахимова, Н. (2024). СЕРГЕЙ АЛЕКСАНДРОВИЧ ЕСЕНИН–ПЕВЕЦ НАРОДНОЙ ДУШИ. *Medicine, pedagogy and technology: theory and practice*, 2(10), 191-198.
6. Рахимова, Н. Ш. (2024). ПАТРИОТИЗМ КАК КУЛЬТУРНЫЙ И ИДЕЙНЫЙ ФЕНОМЕН В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ. *MEDICINE, PEDAGOGY AND TECHNOLOGY: THEORY AND PRACTICE*, 2(12), 95-104.
7. Рахимова, Н. (2025). ВЛИЯНИЕ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОММУНИКАЦИИ СТУДЕНТОВ. *Modern Science and Research*, 4(1), 54-66.
8. Ziyo.net
9. Refarat.uz
10. Madaniyat.uz